

# Zahiriddin Muhammad Bobur Harbiy Boshqaruvining O'ziga Xos Psixologik Jihatlarini

**Baubekov Urazali Mamasalievich**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada buyuk sarkarda, davlat arbobi va adib Zahiriddin Muhammad Boburning boshqaruv san'ati, uning siyosiy qarashlari hamda davlatni idora etishdagi tamoyillari tahlil qilinadi. Bobur yaratgan boshqaruv tizimining o'ziga xos jihatlari, adolat, halollik, xalqparvarlik va bilimga asoslangan yondashuvi ilmiy manbalar asosida yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** Bobur, boshqaruv san'ati, davlat boshqaruvi, adolat, siyosat, harbiy islohotlar, Boburiylar davlati.

## Kirish

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483–1530) — O'rta Osiyo tarixida o'zining harbiy iste'dodi, siyosiy zakovati va adabiy merosi bilan ajralib turadigan siymolardan biridir. U nafaqat shoir va tarixchi, balki yirik davlat arbobi sifatida ham tarixda chuqur iz qoldirgan. Bobur o'z davrida siyosiy beqarorlik, ichki nizolar va tashqi tahdidlar sharoitida markazlashgan davlat barpo etish yo'lida kurash olib borgan. Uning boshqaruv san'ati bugungi kunda ham rahbarlik faoliyatining o'lmas namunasi sifatida o'rganishga arzigulikdir.

Asosiy qism

### 1. Boburning siyosiy va boshqaruv qarashlari

Boburning “Boburnoma” asari nafaqat tarixiy manba, balki boshqaruv nazariyasi jihatidan ham qimmatli qo'llanmadir. Unda Bobur rahbar shaxsining asosiy fazilatlarini sifatida adolat, insof, halollik va xalq dardiga befarq bo'lmaslikni ta'kidlaydi. U yozadi: “Podshohning eng buyuk fazilati adolatdir, adolatsiz podshohlik abadiy emas.” Bu fikr Bobur davlatni boshqarishda qonun va adolatni ustuvor qo'yganini ko'rsatadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur O'rta asr Sharq madaniyati, adabiyoti va she'riyatida o'ziga xos o'rin egallagan adib, shoir, olim bo'lish bilan birga, yirik davlat va siyosat arbobi, mohir sarkarda ham sanaladi. U keng dunyoqarashi va komil aql-zakovati bilan Hindistonda ma'rifatparvar davlat arbobi sifatida nom qozongan bo'lsa, “Boburnoma” asari bilan jahonning mashhur tarixnavislari qatoridan ham joy olgan. Uning nafis g'azal va ruboiylari turkiy she'riyatning eng nodir durdonalaridan sanaladi. “Mubayyin”, “Harb ishi”, “Xatti Boburiy” asarlari va “Aruz” risolasi islom qonunshunosligi, harbiy san'ati, nafis san'at, she'riyat va til nazariyasi sohalarini rivojiga munosib hissa bo'lib qo'shildi. Javoharlar Neru o'zining “Hindistonning kashf etilishi” kitobida: “Bobur dilbar shaxs edi. Uyg'onish davrining ajoyib sultoni, kuchli, tadbirkor kishi bo'lib, san'atni, adabiyotni, go'zallikni sevardi”, deb yozgan. Boburning ulkan ijodkorligi shundaki, asarlarida shaxsiy kechinmalarini bayon etish barobarida yuksak g'oyalar, umuminsoniy qadriyatlarini olg'a suradi. Uning ijodida, xususan, she'riyatida ona yurtning chin dildan qo'msash, uning tuprog'iga talpinish, musofirlik iztiroblaridan hasrat, yoru diyoy sog'inchi katta nafosat bilan badiiy talqin etiladi. Shuningdek, Boburning “Boburnoma” asari Boburiylar saltanatini barpo etgan shoh Boburning hayoti, harbiy yurishlari, mamlakatlar sharoitiga bag'ishlangan memuar asardir. Mazkur kitob umri davomida ko'pdan-ko'p yuksalishlar, tanazzullarni boshidan kechirgan insonning ibratli

tarixidirki, uning yuksalishlari qanchalik sarbaland bo'lsa, tanazzullari shunchalik iztiroblidir. Bobur qirq yetti yil umr ko'rgan bo'lsa, "Boburnoma" mana shu umrning o'n sakkiz yilini o'zida jamlagan. Kitob Boburning o'z qo'li bilan turkiy tilda yaratilgan. Unda Bobur ijodiyotida ta'lim-tarbiya, odob-axloq masalalar o'z ifodasini topgan. Bobur Mirzo tomonidan "Boburnoma"ga kiritilgan nodir ma'lumotlar faqat adabiy hayotga tegishli bo'lmay, balki keng qirralidir. Unda shoirlar bilan bir qatorda taniqli xattotlar, musiqa olamining donishmandlari, zamona zukkolari tomonidan e'tirof etilgan mudarrislar, naqqosh- u musavvirilar, tarix sohasining bilimdonlari va hokozalar haqida ham ixcham, aniq va odilona fikrlar o'rta tashlanadi [2,480]. Bobur ijodida:

Xulqingni rost qilg'il har sorig'aki borsang, Axsanta der bari el gar yaxshi ot chiqarsang,  
deb yozgan Boburning o'zi umri davomida ana shu gapiga rioya qilgan.

Ko'p g'azallarida axloqning barcha jihatlariga rioya qilish kerakligini va shundagina kishi el hurmatiga, baxtga sazovar bo'lishini uqtirgan. Insonlarga hurmatni, mehr-oqibat va boshqa ezgu fazilatlarni doimo ulug'lagan. Quyidagi ruboiyda kamtarlik va uning go'zal fazilat ekanligi ta'kidlangan:

Ey, yel borib ahbobg'a nomimni degil, Har kim meni bilsa, bu kalomimni degil. Mendin demagil,  
gar unitilgan bo'lsam, Har kimki meni sursa, salomimni degil.

Bobur she'rlarida haqiqiy barkamol inson timsoli madh etiladi. Eng avvalo inson qadr- qimmatini yuqori tutish, doimo inson kamtarlikni o'zi uchun kasb etmog'i lozimligi targ'ib etiladi. Bobur she'rlarida inson kamoloti uchun ilmning naqadar zarurligi qayta-qayta uqtirilgan:

Kim yor anga ilm tolibi ilm kerak, O'rgangali ilm tolibi ilm kerak.

Men tolibu ilmu tolibi ilm yo'q, Men bor men ilm tolibi ilm kerak.

Bobur ilm insonlari "hamisha yuksak fazilatlarga ega bo'lishi lozim" deb hisoblagan.

Ularning kamtarm, sofdil, xalqni hurmat qiladigan fazilatlarga ega bo'lishini ta'kidlagan: Bori elga yaxshilik qilgilki, mundin yaxshi yo'q,

Kim degaylar dahr qoldi falondin yaxshiliq.

Bobur axloq-odob haqidagi qarashlariga yaxshilik, vafodorlikni eng go'zal fazilat sifatida ulug'laydi, yomonlikni jafo keltiruvchi illat sifatida qoralaydi:

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur,

Har kimki jafo qilsa jafo topqusidur.

Yaxshi kishi ko'rmagay yomonlig' hargiz, Har kimki yomon bo'lsa, jazo topqusidur.

Boburning ta'lim tarbiyaga doir qarashlaridagi bosh masala – Vatanga cheksiz muhabbatdir. Boburning mana shu mavzudagi she'rlari kitobxonni ona Vatanni sevishga, unga fidoyi, sodiq bo'lishga, o'z xalqiga xizmat qilishga chorlaydi, o'quvchining qalbida yuksak insonparvarlik tuyg'ularini shakllantiradi:

Tole' yo'q jonimg'a balolig' bo'ldi, Har ishniki ayladim xatolig' bo'ldi. O'z yerni quyub hind sori yuzlandim, Yo rab netayin ne yuz qarolig' bo'di.

Bobur she'rlarida haqiqiy, barkamol inson timsoli madh etiladi, ulug'lanadi. Eng avvalo, insonning qadr-qimmatini yuqori tutish, amal va davlatga erishib g'ururlanmaslik, kamtarinlik kabi xislatlar targ'ib etiladi. Bobur inson kamolotining birinchi ostonasi oila ekanligini uqtirib, u jarayon nihoyatda qiyin va murakkabligini his etgan edi. Bolalarning axloq-odob qoidalarini o'rganishi ko'p jihatdan atrofdagi shaxslarga bog'liqligini yaxshi bilgan Bobur o'z farzandlarini tarbiyalashda tadbirkor, bilimdon odamlar bilan maslahatlashib, tajribali fozil va tarbiya ko'rgan kishilar bilan kengashib ish tutgan.

## **2. Harbiy va siyosiy boshqaruvdagi yangiliklar**

Bobur o'z davrida zamonaviy harbiy tizim yaratishga e'tibor bergan. U Markaziy Osiyoda qo'shinlarni yagona intizomga bo'ysundirish, jangovar tartiblarni kuchaytirish, harbiy texnikani yangilashga harakat qilgan. Hindistonda Boburiylar imperiyasiga asos solganidan so'ng, u yerda ham boshqaruv tizimini kuchli markazlashgan holga keltirdi. Bobur davlat boshqaruvida turli millat va din vakillariga bag'rikenglik bilan munosabatda bo'lgan, bu esa imperiyada tinchlik va barqarorlikni ta'minlagan.

## **3. Boburning iqtisodiy va ijtimoiy siyosati**

Bobur iqtisodiy barqarorlikni davlat qudratining asosi deb bilgan. U soliqlarni adolatli taqsimlash, dehqonchilik va hunarmandchilikni rivojlantirishga e'tibor qaratgan. Bobur davrida sug'orish tizimlari kengaytirilib, shaharsozlik rivoj topgan. Ijtimoiy sohada esa u ilm-fan, san'at va adabiyot ahliga homiylik qilgan, bu esa madaniy uyg'onish davrini boshlab bergan.

## **4. Bobur boshqaruv san'atining zamonaviy ahamiyati**

Bugungi kunda Bobur boshqaruv uslubini strategik fikrlash, insonparvarlik va bilimga asoslangan liderlik namunasi sifatida o'rganish muhim. U rahbar shaxsining axloqiy pokligi, xalq bilan yaqinligi va adolatni hayot mezoni sifatida ko'rgan. Shu bois, Boburning boshqaruv tajribasi zamonaviy menejment, siyosatshunoslik va davlat boshqaruvi fanlari uchun qimmatli ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa

Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining siyosiy donoligi, harbiy iste'dodi va adolatparvarlik tamoyillari bilan o'z davrining eng yirik davlat arboblariidan biri bo'lgan. Uning boshqaruv san'ati bugungi kunda ham insonparvarlik, adolat va mas'uliyatli rahbarlikning yorqin namunasi bo'lib qolmoqda. Bobur yaratgan meros – nafaqat tarixiy xotira, balki zamonaviy boshqaruv uchun ham bebaho manbadir.

## **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Fan, 1960.
2. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
3. Rahimov A. Bobur va boburiylar davlati. – Toshkent: O'zbekiston, 2015.
4. Aliyev S. Boburning siyosiy qarashlari va boshqaruv san'ati. – Toshkent, 2020.
5. Hasanov R. Markaziy Osiyo davlat boshqaruvi tarixi. – Samarqand, 2019.